



2021-yil 26-oktabr

“O`zkiymyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining rasmiy bayonoti

“O`zkiymyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tashkilot tizmidagi “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati faoliyati bilan bog`liq kun.uz internet nashridagi “Zaharlangan Zarafshon” sarlavhali maqolasida keltirilgan ma`lumotlar atroflicha o`rganib chiqilib quyidagilarni ma`lum qiladi.

“Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati tomonidan atmosferaga tashlanadigan tashlamalar, oqova suvlar tashlamalari me`yorlariga rioya qilish hamda oqova suvlarni tozalash inshootlarining ishlash samaradorligi muntazam nazorat qilib kelinadi.

Lavhada “Navoiyazot” AJdan “mana shu zavoddan chiqayotgan barcha kimyoviy elementlar birinchi quduq`i” jumlasini noto`g`ri ma`lumot hisoblanadi. Chunki bu quduqdan “Navoiyazot” AJning barcha oqova suvlari chiqarilmaydi, aksincha bu quduqdan faqat yomg`ir suvlari hamda sovutish tizimlaridan zararli bo`lmagan suvlar tashlanadi.

“Navoiyazot” AJ asosiy ishlab chiqarish qurilmalaridan xosil bo`ladigan sanoat va maishiy oqova suvlari Biokimyoviy tozalash inshootida tozalanadi va quduqqa emas, balki kollektor orqali Zarafshon daryosiga tashlanadi. Qattiq holatdagi ifloslantiruvchi moddalar shlamonakopitelga yuboriladi. Shu o`rinda takror bo`lsa-da ta`kidlab o`tish lozimki, biokimyoviy tozalash inshootiga keladigan oqova suvlarining 81 foizini Navoiy shahri va boshqa sanoat korxonalari oqova suvlari tashkil qiladi.

Lavhada ko`rsatilgan “suvga zaharli moddalarni oqizish” kabi ayblovchi xulosalarni noto`g`ri deb hisoblaymiz. Korxonaning oqova suvi sifatining dinamikasi keskin o`zgarishlarsiz va “zaharli” moddalar mavjud emas. Oqova suvi tarkibidagi xlorid, mis, azot moddalari 3-4 xavf toifasiga kiradi. Viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi mas`ul xodimi tomonidan aytilgan nitrat kislotasi suvga tashlanmaydi. Suvda kislotaning borligini pH ko`rsatgichi bildiradi. Tahlil natijalari shuni ko`rsatdiki, “Navoiyazot” AJ oqova suvlari pH ko`rsatgichi hech qachon me`yordan oshmagan. Xloridlar miqdori ruxsat etilgan normadan, ya`ni 300 mg/m³ miqdordan oshmagan va misning miqdori ham ruxsat etilgan normaga (0,001 mg/m³) yaqin bo`lgan.

Lavhada ko`rsatilgan suvdagi maishiy chiqindilar ham “Navoiyazot” AJga tegishli emas, aksincha mahalliy aholi tomonidan tashlanadigan suvlar hisoblanadi. Quyidagi rasmda (lavhadan olingan) “Navoiyazot” AJdan chiqayotgan oqova suvlar betonli lotok orqali tashlanadi.



Yuqoridagilarni inobatga olib, ommaviy axborot vositalaridan vaziyatni atroflicha o`rgangan holda professional jurnalistik surishtiruv o`tkazib xolis baho berishlarini so`rab qolamiz va holatni batafsil o`rganish maqsadida barcha jurnalist va blogerlarni press-turga taklif etamiz.

Shu maqsadda "Navoiyazot" AJning faoliyati, ishlab chiqarish jarayonlari va atrof-muhit muhofazasi borasida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish va keng muhokamalarga sabab bo`layotgan mavzu yuzasidan savollarga javob olish uchun jurnalist va blogerlar ishtirokida 2021 yil 29 oktabr kuni korxonaga press-tur tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, press-tur doirasida korxonadagi yangi ishlab chiqarish quvvatlari va mahsulotlarning sifat darajasi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ham ega bo`lasiz.

Press-turda ishtirok etish istagini bildirgan barcha jurnalist va blogerlar 78 140-74-26 yoki 97 136-35-04 telefon raqamlariga qo`ng`iroq qilib, ro`yxatdan o`tishlari mumkin.

Press-tur bilan bog`liq qo`shimcha ma`lumotlar "O`zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e`lon qilanadi.

"O`zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/bayonot-navoiyazot26102021>